

Bektamisheva Maqsuda Klichovna

Samarqand viloyati Narpay tumani

64- umumta'lim maktabi

Texnologiya fani o'qituvchisi

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rangbarangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda.

O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bogliq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan.

Nazariy bilimlar berishda, to'garak ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda duch keladigan qiyinchiliklar, yangi pedagogik texnologiyani joriy etishga qaratilgan yo'l-yo'riqlar, bezak elementlarining tarixi, milliy bezak elementlari tarixi, milliy bezak turlari, gazlamalarning turlari kabi bilimlar beriladi. Bu bilimlar amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlanadi, shuningdek, muzeylarga, maktablarga, madaniyat uylarida tashkil etilgan ko'rgazmalarga ekskursiya uyushtiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar davrida o'quvchilarning gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik to'garagi rejasini tahlil etish, tuzish, uning bo'limlari asosida mashg'ulotlarga tayyorlanish, ko'rgazmalar tayyorlash va mashg'ulotlarni o'tkazish, tahlil etish bo'yicha ishlarni bajarishlari ko'zda tutilgan.

Amaliy ishlar (mavzuga qarab) otaliq maktablar qoshidagi to'garaklar, madaniyat uylarida o'tkazilishi kerak. Amaliy ishlarni o'tkazishda tog'arak rahbarlarini tayyorlash uchun barcha sharoitlar yaratilishi zarur.

Ko'p yillik ish tajribalariga suyangan holda hamda respublikamiz madaniyat uylaridagi to'garak rahbarlarining ish tajribalarini o'rganish natijasida, ushbu fan dasturi tuzildi. Dastur 5 bo'limdan iborat:

1. Gazlamani tayyorlash.
2. Kashtachilik va uni o'qitish metodikasi.
3. Gazlama qoldiqlaridan keng iste'mol buyumlari tayyorlash.

4. Turli materiallardan bezaklar yasash.

5. Gazlama qoldiqlaridan sun'iy gullar yasash.

Mazkur dastur o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, ularning badiiy jihatdan kamol topishi va ijtimoiy qobiliyatlarini, mustaqil fikrlashni, ishlaridagi badiiylilikni rivojlantirishning katta imkoniyatlarini kengroq o'rgatishni ko'zda tutadi. Fanni o'qitishda o'quvchilarga badiiy tarbiyani rivojlantirish, tejamkorlikka o'rgatish, kashta tikish sanati amaliy tarzda olib boriladi, yani ularga gazlama qoldiqlaridan buyumlar yasash ko'rsatib boriladi, ketma-ketligi tushuntiriladi. Bu esa hozirgi bozor iqtisodiyoti vaqtida juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: gazlama turlarini ajrata olish, gazlamani uy sharoitida bo'yash;

- kashtachilikda qo'llaniladigan ish qurollaridan foydalana olishi va o'quvchilarga o'rgata olish;

- kashtachilikda qo'llaniladigan chok turlarini va ularni buyumlarda qo'llay olishni to'garak a'zolariga o'rgata olish;

- xalq amaliy san'ati muzeylari ko'rgazmalaridagi asarlarni tahlil qila olish, unda qo'llangan choklarni ajrata olishlari.

-tekis choklar, applikatsiya, ko'z-ko'z kashta, baxyasimon choklarni tikish va o'quvchilarga o'rgata olishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu masalalar birinchidan, milliy an'analar va hunarmandchilikning davomiyligini ta'minlasa, ikkinchidan, yoshlarni hunarli qilish bilan birga ularda mehnatga layoqat, ko'nikma hosil qiladi va bo'sh vaqti to'ldiriladi. Yana shogirdga ustozlik tarbiyasi berilib, milliy qadriyatlarga mos dunyoqarash va axborot xurujlariga qarshi immunitet shakllanishiga ko'maklashiladi. Bunday mas'uliyatni anglash va shunga yarasha amaliy harakat esa partiyamizning jamiyatdagi nufuzi va mavqeini mustahakamlash bilan birgalikda mamlakatimiz ravnaqini ham ta'minlaydi. Ajdodlarimizning atrofimizni o'rab turgan olam, koinot yoritgichlari haqidagi qarashlari ham ularning tikish uslublarida o'z aksini topgan. Tilla suvi yuritilgan zar iplar ustalar tafakkurining yuksakligini ifodalaydi. Zardo'zlarning takidlashicha, qanday kiyim bo'lmasin, qaysi gul tanlanmasin, har birining o'z manosi, o'z o'rni va mohiyati borki, uning tarixi uzoq o'tmishimizga borib tutashadi.